



\_\_\_\_\_ hokimligi  
maktabgacha va maktab ta'limi  
boshqarmasi

\_\_\_\_\_ maktabgacha va  
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi  
\_\_\_-umumiy o'rta ta'lim maktabi  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi  
\_\_\_\_\_ning  
20\_\_-20\_\_-o'quv yilida 10-sinflar uchun  
ona tili fanidan I chorak

**DARS**  
**ISHLANMALARI**

**“TASDIQLAYMAN”**  
**O‘IBDO‘** \_\_\_\_\_

**20\_\_-20\_\_-o‘quv yili uchun tuzilgan 10-sinf ona tili fanidan**  
**I chorak taqvimiy mavzu rejasi**

<b>№</b>	<b>Mavzu nomi</b>	<b>Soat</b>	<b>Sana</b>	<b>Izoh</b>
1.	“Muhabbat o‘zi nima?” matni bilan tanishish . Matn turlari. Nutq uslublari	1		
2.	Matn asosida topshiriqlar. Rasmiy uslub	1		
3.	Matn ustida ishlash. Ilmiy va badiiy uslublar	1		
4.	Matn asosida topshiriqlar. Argumentli esse	1		
5.	Ota-onaga muhabbat. Antonimlarning qo‘llanilishi	1		
6.	“Hikikomori” matni bilan tanishish. Uslubiy xatolar	1		
7.	Jamiyatdagi odat va tartiblar. Sinonimlar uslubiyati	1		
8.	Illatlar. Eskirgan so‘zlar	1		
9.	Ismlar. Bosh harflar imlosi	1		
10.	<b>1-nazorat ishi</b>	1		
11.	Kishining hayotdagi o‘rni. Olmoshlar qo‘llanilishi	1		
12.	Mas’uliyat. Atamalar	1		
13.	Mualliflik huquqi.Undosh tovushlar talaffuzi va imlosi	1		
14.	Gender tengligi. Yonma-yon keladigan undoshlarning imlosi	1		
15.	Matn ustida ishlash. Unli harflar imlosi	1		
16.	Mustahkamlash.	1		
17.	<b>2-nazorat ishi</b>	1		
18.	Xatolar ustida ishlash	1		

<b>Sana:</b>				
<b>Sinf:</b>				

**Mavzu: “Muhabbat o‘zi nima?” matni bilan tanishish . Matn turlari. Nutq uslublari**  
**Darsning maqsadi:**

**Ta’limiy:** o‘quvchilarga yangi mavzu bo‘yicha yangi bilimlar berish va bilimlarini oshirish.

**Tarbiyaviy:** o‘quvchilarda berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg‘otish.

**Rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish mustaqil fikrlash doirasini yuksaltirish.

**O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:**

**Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:**

mavjud axborot manbalarini (kitob, ommaviy axborot vositalari, internet, lug‘at, ma’lumotnomalar (audio-video yozuv) va boshq.) o‘quv maqsadlari doirasida izlab topa olish, saralash, qayta ishlash va foydalana olish, xulosa chiqarish va o‘z faoliyatida qo‘llash; media-madaniyatga rioya qilish;

**O‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi:**

bilimlarini mustaqil ravishda oshirib borish, kundalik faoliyatda til qoidalariga amal qilish hamda nutqiy jarayonda egallagan bilimlarni to‘g‘ri qo‘llash; shaxs sifatida ma’naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilishni hayotiy-ma’naviy ehtiyojga aylantirish.

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

**Dars uslubi:** tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko‘rgazmali va boshqalar.

**Dars metodi:** guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman” shu kabi metodlar.

**Dars jihozi:** mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

**Darsning borishi:**

<b>№</b>	<b>Bo‘limlar</b>	<b>Vaqt</b>
<b>1</b>	Tashkiliy qism	3 daqiqa
<b>2</b>	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
<b>3</b>	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
<b>4</b>	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
<b>5</b>	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
<b>6</b>	Uyga vazifa	2 daqiqa
<b>Jami</b>		<b>45 daqiqa</b>

**I. Tashkiliy qism:** a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

**II. Uyga vazifani so‘rash:** a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

1 Muhabbatni oshiqlar umr mazmuni deb biladilar. Ayrimlar uchun u – azob, biroq totli azob. Vafo ko‘rmaganlar: “Muhabbat yo‘q narsa ekan”, “Muhabbatga ishonmayman”, – deb yozg‘irib ham qo‘yishadi. Bundan ko‘rinadiki, muhabbatga turli taqdir sohiblaridir xil ta’rif berishar ekan. Biroq adabiyot sahifalarini varaqlar ekanmiz, bir narsaga amin bo‘lamiz: oshiq uchun muhabbat mangu bor, ba’zan yor bevafo yoki berahm bo‘lishi

mumkin, xolos. Muhabbatni “Sevib qoldim”, “Ko‘nglimda muhabbat uyg‘ondi”, “Ishqim tushdi” kabi jumlar bilan izhor qiladilar. Biroq sevgi, muhabbat, ishq deganlari bir narsamikan?

Ingliz tilida “Love”, nemischada “Liebe”, lotinchada “Amor”, ruschada “Любовь” deb nomlanadigan tuyg‘uga nisbatan o‘zbek tilida sevgi, muhabbat, ishqso‘zlari qo‘llanadi. Biroq bu so‘zlar ayrim jihatlari bilan o‘zaro farqlanar ekan.

Adib va adabiyotshunos Pirimqul Qodirov mavzuga doirmaqolasida sevgi bir qalbda bo‘lsa, muhabbat ikki qalb o‘rtasida bo‘lishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, siz kimnidir sevsangiz-u, lekin u sizni sevmasa ham sevgi haqida gapirish mumkin, biroq muhabbat so‘zi ikki qalb bir-birini sevgan holatda ishlatiladi. 2“Sevgi” so‘zi o‘zbekcha (turkiy) bo‘lsa, “muhabbat” arab tilidan o‘zlashgan. Manbalarda “muhabbat” so‘zi “habb”, ya’ni xum so‘zidan olingani aytiladi. Xum to‘lsa, uning ichiga boshqa narsa solib bo‘lmaganidek, qalbda muhabbat bo‘lsa, boshqa kishiga joy qolmaydi. “Sharq yulduzi”da bosilgan maqolada shunday yoziladi: “Yana boshqa ba’zilar “muhabbat” so‘zining “habb” (don)so‘zidan kelib chiqqani to‘g‘risida fikr bildirishadi. Jumladan, “habb” so‘zi to‘g‘risida har bir mag‘izli narsaning doni bor, deydilar. Shundan kelib chiqib, yurakning o‘rtasini “habbat ul-qalb”(yurak doni)deydilar va do‘st (sevgili, suyuqli, mahbub, ma’shuq) o‘sha joydan o‘tsa, shuni “muhabbat” deb ataydilar”. Shu o‘rinda bir savol tug‘iladi: kundalik hayotda ham biz bu ikki tushunchani farqlaymizmi? Shoir va yozuvchilarimiz-chi? Xalqona she’rlar ijodkori Muhammad Yusufga murojaat qilib ko‘ramiz:

Sevgi, sevgi der ekan,  
Sevgi dilni yer ekan.  
Qizga mehring berguncha,  
Muzga bag‘ring ber ekan.

Muhabbat, ey go‘zal **iztirob**,  
Ey ko‘hna dard, ey ko‘hna tuyg‘u,  
Ko‘kragimga qo‘lingni tirab,  
Yuragimni to‘kib qo‘yding-ku.

Bu satrlardan ko‘rinadiki, biz sevgi va muhabbat tushunchalarini deyarli farqlamaymiz. Lekin muhabbat negadir sevgidan ko‘ra kengroqva yukli tushunchadek tuyulaveradi. Sizda ham shunaqami?

3Endi oshiq, ma’shuqa, ushshoqso‘zlarining asosi bo‘lmish ishqhaqida gaplashsak. “Ishq” so‘zi “ashaqa” – “chirmovuq o‘t”dan olingan. Chirmovuq daraxtga chirmashib unga ziyon yetkazadi, oxir-oqibat quritadi. Ishq bir dard bo‘lib, u odamning fikri-yu yodini, o‘y-u xayolini “chirmab” oladi, kuni kelib kasal qiladi. Bu ma’lumotlarni o‘qiy turib bexosMajnunni eslagan bo‘lsangiz, ajab emas. Binoyidek Qays ishq domiga tushib majnunga aylandi-qoldi.

#### **IV. Yangi mavzuni mustahkamlash**

1. Siz muhabbatni qanday tushunasiz?
2. Bu so‘zni eshitganingiz zahoti xayolingizda kim yoki nima gavdalanadi?
3. O‘zi muhabbatga ishonasizmi?

**V. Darsni yakunlash:** o‘quvchilarni yutuq va kamchilliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

**VI. Uyga vazifani e‘lon qilish:** yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

**O‘IBDO‘:** \_\_\_\_\_

(imzo)

(sana)

Sana:				
Sinf:				

## Mavzu: Matn asosida topshiriqlar. Rasmiy uslub

### Darsning maqsadi:

**Ta'limiy:** o'quvchilarga yangi mavzu bo'yicha yangi bilimlar berish va bilimlarini oshirish.

**Tarbiyaviy:** o'quvchilarda berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg'otish.

**Rivojlantiruvchi:** o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish mustaqil fikrlash doirasini yuksaltirish.

### O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

#### Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish; tadbirlarda (turli mavzudagi ko'rik-tanlovlar, musobaqalar va h.k.) faol ishtirok etish.

#### Milliy va umummadaniy kompetensiyalar:

ona tili fanining rivojlanish tarixi, uning taraqqiyot qonuniyatlaridan xabardor bo'lish.

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

**Dars uslubi:** tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko'rgazmali va boshqalar.

**Dars metodi:** guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko'rsam tezroq o'rganaman” shu kabi metodlar.

**Dars jihozi:** mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

### Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
<b>Jami</b>		<b>45 daqiqa</b>

**I. Tashkiliy qism:** a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

**II. Uyga vazifani so'rash:** a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

### III. Yangi mavzu bayoni:

Tizzaning orqa tomonidagi chuqurcha taqim deyiladi. Inson tanasining bu qismi ko'p tillarda nomga ega emas. Internetda tilga oid faktlar orasida “Tizzaning orqa qismi hech qaysi tilda nomga ega emas” degan jumlagacha duch kelishimiz mumkin. Biroq bu fakt xabarchilari o'zbek (turkiy) tilidan bexabar ko'rinishadi. Bobolarimiz sochi uzun qizlarni ta'riflashda “sochi taqimiga tushar ekan” deyishgan; uloq (ko'pkari) o'yinida “uloqni taqimiga bosdi” degan ifoda hamon qo'llanadi.

Ayrimlar biror kishi uni sevish-sevmasligini aniqlash uchun moychechak (“romashka”)dan foydalanishadi: uning gulini bitta-bitta yulib chiqishadi. Buni filmlarda ham ko'rgan bo'lsangiz kerak? Nima deb o'ylaysiz: bu bilan nimaga erishish mumkin?

Nega aynan moychechak tanlangan?

## RASMIY USLUB

Ariza, rezyume, tilxat, dalolatnoma kabilar, shuningdek, qonun, qaror, nizom, xalqaro hujjatlar rasmiy uslubda yoziladi. Har bir hujjat matni o'ziga xos qolipi va maxsus so'zlariga ega. Shu bois ularni yozishda namunaga yoki davlat tilida ish yuritishga doir kitoblarga murojaat qilish tavsiya qilinadi.

**2.4-mashq.** Quyida berilgan rezyume (ma'lumotnoma, og'zaki nutqda "obyektivka", CV ham deyiladi) namunasi bilan tanishib chiqing.

### MA'LUMOTNOMA

Qosimova Gulnora Azamatovna

2021-yil 2-sentyabrdan:

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Amaliy filologiya kafedrasi o'qituvchisi**

**Tug'ilgan yili:**

03.11.1976

**Tug'ilgan joyi:**

Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumani

**Millati:**

o'zbek

**Partiyaviyligi:**

yo'q

**Ma'lumoti:**

oliy

**Tamomlagan vaqti:**

1999-yil, O'zbekiston Milliy universiteti (kunduzgi)

2001-yil, O'zbekiston Milliy universiteti (magistratura)

**Ma'lumoti bo'yicha mutaxassisligi:**

lingvistika (o'zbek tili)

**Ilmiy darajasi:**

yo'q

**Ilmiy unvoni:**

yo'q

**Qaysi chet tillarini biladi:**

ingliz tili, turk tili, rus tili

**Davlat mukofotlari bilan taqdirlanganmi (qanaqa)?**

O'zbekiston Respublikasi Xalq maorifi a'lochisi

**Xalq deputatlari, respublika, viloyat, shahar va tuman kengashi deputatimi yoki boshqa**

**saylanadigan organlarning a'zosimi (to'liq ko'rsatilishi lozim):**

yo'q

### MEHNAT FAOLIYATI

1995–1999-y. – O'zbekiston Milliy universiteti talabasi

1999–2001-y. – O'zbekiston Milliy universiteti magistranti

2001–2010-y. – Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumani 4-sonli umumta'lim maktabi-ning ona tili va adabiyot o'qituvchisi

## IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

Topshiriq. O'zingizning rezyume-ma'lumotnomangizni tayyorlang.

**V. Darsni yakunlash:** o'quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

**VI. Uyga vazifani e'lon qilish:** yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

**O'IBDO':** \_\_\_\_\_

(imzo)

(sana)

*v**eb**-saytimiz: [Zokirjon.com](http://Zokirjon.com)*

*Zokirjon.com. v**eb**-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.*

## *Zokirjon Admin bilan*

*90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.*

*Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi*

**37 listdan iborat ona tili fanidan 10-sinf I chorak konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.**



Telegram kanalimiz:

**@Maktablar\_uchun\_hujjatlar**

To‘lov uchun: **UZCARD \*880\*9860230104973329\*summa#**

**Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**



### **DIQQAT!!!**

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.  
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:  
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.  
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.  
Internet orqali v**eb**-saytlarga joylamang.  
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA**

**HIYONAT QILMANG.**

***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!***  
***Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.***

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**